

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

BADIIY ADABIYOTLARNI TABIIYACHINING NUTQ FAOLIYATIDAGI O'RNI.

Jalilova Durdona Farhod qizi.

Elamonova Nodira Nabijon qizi.

JDPU Maktabgacha ta'lim fakulteti.

531-20 guruh talabalari.

Annotatsiya: Ushbu maqqolada tarbiyachining nutq madaniyati , tarbiyachi nutqiga quyilgan pedagogik talablar hamda tarbiyachi nutqining ta'sirchanligi va ifodaviyligi haqida fikirlar bayon etilgan .

Kalit so'zlari: Nutq, nutq texnikasi , pauza, ritm, tembr, ohang, sheva, mahalliy so'zlar, diksiya, iboralar, nutqning tasitchanligi.

Анататсия: Представлены мнения о культуре речи учителя, педагогических требованиях к речи учителя, результативности и выразительности речи учителя.

Ключевые слова: Речь, речевая техника, пауза, ритм, тон , диалект, местные слова, дикция, фраза, речевая результативность.

Annatation : Opinions about the sreech culture of the education , the demad for the edukator's speech, and the effectiveness and expressiveness of the edukator's speechare expressed.

Keywords: Speech, speech technique,pause,rhytim, timbre,tone,diaclect, local words, diction, phrases,speech effectiveness.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishganidan so'ng talim tizimiga bo'lgan e'tibor juda ham kuchaymoqda .Keyingi yillarda bizning ta'lim tizimimiz ham boshqa rivojlangan davlatlar qatori eng yuqori darajaga erishmoqda . Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar o'quvchi yoshlarni bilim olishga bulgan ishtiyoqini , qiziqishlarini va bilim darajasini kengaytirmoqda albatta bu esa bizning ulkan yutuqlarimizdan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.Xususan prezdentimiz tashabusi bilan hamda maktabgacha talim vazirligi tomonidan maktabgacha talim tizimini tubdan o'zgartirish ishlari amalga oshirilmoqda , ko'plab qaror va farmonlar joriy etilmoqda. Barcha bolalarni maktabgacha talim tizimiga qamrab olish ,ularning bilm olishga bo'gan qiziqishlarini oshirish tasavvur olamini kengaytirish, ularga aqliy tarbiyani axloqiy tarbiyani jismoniy tarbiyani ,estetik tarbiyani ilk yoshdan boshlab berish pedagog tarbiyachilarning va ota onaning asosiy vazifasiga

aylantirish kerakligi , bolalarning vaqtining samarali tashkil etish, bolalarni chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini oshirish ularni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash , ona vatanni sevish uni ardoqlash , el yurt oldida vatan istiqbolini yuksak pog'onalarga chiqarish, milliy qadriyat va ananalarimizni o'rgatish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.Maktabgacha talim tashkilotlarida tarbiyachi bolalarga bilim berar ekan u avvalo bilim kunikma va malakaga ega bo'lishi dunyoviy va diniy bilimlarga ega bo'lishi o'z kasbi sevishi , unga hurmat bilan qarashi , metodikasni chuqur o'zlashtirgan bo'lishi ,kasbi yuzasi haqidagi barcha bilimlarga ega bo'lishi o'zining kamchiliklarini ko'ra olishi hamda mashg'ulotlarni to'g'ri va samarali tashkil etishi shart. Tarbiyachi avvalo nutq madaniyatiga ega bolishi kerak tarbiyachining nutqi bola nutqini to'g'ri rivojlanishi uchun namuna hisoblanadi shuni hisobga olgan holda tarbiyachi talaffuzning adabiy me'yorlariga rioya qilishi ,nutqidagi kamchiliklarni ko'ra bilishi va kamchiliklarni to'g'irlashi , o'z nutqida parazit so'zlarni ishlatmasligi va mahalliy so'zlardan ,shevalardan foydalanmasligi kerak, Nutq jarayonida urg'ularni to'g'ri quyishi va ayrim tovushlarni yutib yumormasligi kerak. Diksiya bu nutq bayon qilayotgan vaqtda tarbiyachi so'zlarni , tovushlarni, bo'g'inlarni, unli va undosh tovushlarniani va ravon chiroyli talaffuz qilish deganidir .Demak tarbiyachi bolalarni nutqini rivojlantirish jarayonida bolalarga ko'proq badiiy adabiyotlarni ertak va hikoyalarni ifodali tarzida chiroyli bayon qilish kerakligi talab qilinadi, shundagina bolaning nutqi ravon , so'zlarni duduqlanmasdan to'g'ri talaffuz qiladi.Tarbiyachi bolalar bilan muloqotda bo'lar ekan nutqining ta'sirchanligi va ifodaviyligiga etibor qaratishi lozimdir. Tarbiyachi pedagoglarning nutqi ematsinal to'liq inatsiyalarga boy, yetarli darajada baland va tezligi ham maromida bolishi lozim.Bolalarga tarbiyachi ertak , badiiy asarlar, hikoyalar o'qib berar ekan nutqi juda baland yoki juda sekin bo'lmasligi lozim, nutqini bayon qilayotgan vaqtida tarbiyachi nutqidagi bolalar uchun tushunarsiz bo'lgan so'zlardan ,murakkab so'zlardan,uzoq iboralar bilan qiyinlashtirmagani maquldir.Chunki uzun, grammatik jihatdan murakkab tuzulgan iboralarni bolalar tushunmasligi va talaffuz qila olmasliklari mumkin. Demak bolalar bilan ishlashda tarbiyachi pedagog ona tilidagi barcha tovushklarni to'g'ri talaffuz qilishi, nutqida mavjud bo'lgan kamchiliklarni bartarf etishi ,bolalarga odatiy gaprganda ham aniq, tushunarli,diksiya qoidalariga rioya qilgan holda gapirshi ,nutq jarayonida orfoepik qoidalarga amal qilishi bolalar bilan muloqot jarayonini juda tez emas balki sekinlashtirilgan holda tashil etishi lozim. Tarbiyachi nutq bayon qilar ekan bolalarning yosh xususiyatlariga to'g'ri keladigan iboralardan , maqollardan, foydalanish kerakligi lozim aks holda bolalar tushunmasligi va notog'ri tushunchaga ega bo'lshi mumkin.Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda tarbiyachi bolalarga o'zining ravon nutq madaniyati bilan urnak bo'ldi, demak nutq madaniyati o'ziga bir necha xususiyatlarni ya'ni nutqning to'g'riligi , nutqning aniqligi, nutqning ifodaliligi, nutqning sofliqi, nutqning ravonligi, nutqning

boyli, kabi sifatlariga ega bo'lmog'i lozim. Bolalar bilan muloqot o'rnatganda bolaning psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ona tilining leksik birliklarini keng qo'llash so'zlarning sinonim, antonym turlaridan ham foydalanish, bola tushunishi mumkin va oson bo'lgan so'zlardan foydalanish kerak. Bola bilan suhbat chog'ida adabiy tilga oid so'zlarni qullash, qo'pol so'zlarga yo'l quymasligi kerak. Demak tarbiyachining lug'at boyli qanchalik yuqori va turli tuman bo'lsa, nutqi yoqimli, ovozi jarangdor eshtiganda qullloqqa yoqadigan va bolalarning diqqatini bir zumda jab etadigan bo'lsa, bolalar shunchalik ko'p so'zlarni o'zlashtirib olishlari mumkin. Shuni xulosa o'rnida aytish mumkinki, farzanlarimiz kelajakda yetuk kadr, barkamol shaxs bo'lib ulg'ayishlarida avvalombor, maktabgacha ta'limning o'rni katta hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim butun bir jamiyatimizdagi har bir insonni buyuk shaxs bo'lib rivojlanishi ya'ni ularning kelajakda ona yurtimizga munosib farzand kuchli shaxs bo'lib voyaga yetishlarida ham katta ahamiyatga ega. Biz farzandlarimizga ta'limiga katta e'tibor qaratishimiz, ularning ta'lim olishlari uchun yetrali shart-sharoitlarni yaratishimiz hamda kerakli zamonaviy texnologiyalardan foydalangan xolda talim sifatini yaxshilashimiz lozimdir. Bolalarning chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini, bilimlarini oshorishimiz ularni kelajakda yurtimizga naif tegadigan yetuk, barkamol shaxs bo'lib yetishib chiqishi ahamiyatlidir.

Faydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M Mirziyoyev 2017- 2021 –yilda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi qarori T 2016 yil 29- dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim to'g'risidagi nizom Maktabgacha tarbiya. T2000, 1 son.
3. Asqarova . M va boshqalar Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. T 2001 yil .
4. No'tq o'stirish Bolalar bog'chalari uchun sh'er va hikoyalar to'plami T 2020 yil .
5. SHodiyeva Q Maktabgacha yoshdagi bolalarni nutq qobiliyatlarini rivijlantirish . T O'qituvchi – 2019 yil.